

MIRZACHORBOG' SAROYINING QURILISHI VA ARXITEKTURASI

Imamov Suxrob Solexovich

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti "Bino va inshootlar qurilishi"
kafedrasi stajyor-o'qituvchisi*

Jumaqulov Komiljon Hamroqulovich

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti Arxitektura-Qurilish fakulteti
"Bino va inshootlar qurilishi" yo'nalishi talabasi*

СТРОИТЕЛЬСТВО И АРХИТЕКТУРА ДВОРЕЦА МИРЗАЧОРБОГ

Имамов Сухроб Солехович

стажер-преподаватель кафедры «Строительство зданий и сооружений»
Бухарского инженерно-технологического института

Джумакулов Комилджон Хамрокулович

студент Бухарского инженерно-технологического института,
архитектурно-строительный факультет, по специальности «Строительство
зданий и сооружений»

CONSTRUCTION AND ARCHITECTURE OF MIRZACHORBOG PALACE

Imamov Sukhrob Solekhovich

Constructionteacher of —Construction of buildings and structures|| department of
Bukhara Engineering-Technological Institute
Jumaqulov Komiljon Hamrokulovich

Student of the Bukhara Institute of Engineering Technology, Faculty of
Architecture and Construction, majoring in "Building and Structures Construction"


Kalit so'zlar va iboralar:Karmana,Mirzachorbog' saroyi, Abdurahim Turdimurod o'g'li G'azg'oniy, Amir Abdulahadxon , usta Shirin Murodov, Najjor To'ra, usta Latif, usta Do'st, usta Sulton Qori.

Ключевые слова и фразы: Дворец Мирзачорбог, Абдурахим Турдимурад сын Газгони, Амир Абдулахадхан, мастер Ширин Мурадов, Наджор Тора, мастер Латиф, мастер Дост, мастер Султан Кори.

Key words and phrases: Mirzachorbogh palace, Abdurahim Turdimurad son Ghazgoni, Amir Abdulahadkhan, master Shirin Muradov, Najjor Tora, master Latif, master Dost, master Sultan Qori.

Amir Abdulahadxon (1885—1910) davrida Karmana shahri Buxoro amirligining ikkinchi poytaxti edi. Amir Abdulahadxon ni Ark qal'asida topish qiyin edi, u ko'p vaqtini yo'lida o'tkazdi. Qishda u Shahrisabz va Qarshi shaharlarida bo'lishni yaxshi ko'rardi, yozni har doim o'z Karmanasida o'tkazdi. Davlat ishlari uni Buxoroga

qaytishga majbur qilgan taqdirda ham, u Arkda emas, balki Shirbudundagi qishloq saroyida qoldi. 1894 yilda hukmronlikning to'qqizinchi yilida Said Abdullahadxon Buxoro diniy Ulammolar bilan qattiq janjallahib, butunlay Karmanaga ko'chib o'tgani ajablanarli emas, u yerdan u 1910 yilda vafotigacha hech qachon poytaxtga tashrif buyurmagan. Buxoroning changli va qaqshatqich cho'qqisida Amir Karmanada o'z qarorgohini obodonlashtirishga katta ahamiyat berdi, Uning davrida Karmanada Asqarobod, Charmgar chorborg‘, Jar chorborg‘, Gul chorborg‘, Bog‘iolchin, Xayrobod, Mirza chorborg‘ kabi saroy va chorborg‘lar qurilgan. Bulardan tashqari Karmanada 1,7 km² li to‘rt burchakli o‘rda ham bo‘lgan. Zarafshon daryosi (hozirgi Karmana tumani Ko‘hnaqo'rg'on mahallasi) yaqinida joylashgan so'nggi bog'da 1900-1905 yillarda yangi yozgi qarorgoh tashkil etildi. O‘zining me'moriy uslubida noyob bo'lgan ushbu ob'ekt bugungi kungacha saqlanib qolgan va nafaqat tarix, balki devor rasmlari, keramika va yog'och o'ymakorligi namunalari bilan ham qadrildir. Mirzochorborg‘ saroyi bu bog‘lar ichida o‘zining go‘zalligi, hayratomus me'morchiligi, nafis ganchkori naqshlari bilan ajralib turgan.



Amir Abdulahadxon tomonidan 1900—1905-yillarda Karmanada qurdirilgan Mirzachorborg‘ qarorgohining bezaklar(devor rasmlarida yog‘och o'ymakorligi va ganchkorlikning bir-birini to‘ldirib turadigan, yaxlit bir san'atining, muvafaqiyatlilijrosi ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanib turgan.)



Saroyning mazkur xonalari bezaklari, umumsaroy bezaklari bilan mos ravishda ishlanib, tom yopmalar bolorlar va vassalardan iborat. Bu metod saroy intererlariga o‘zgacha ko‘rk va milliy me’morchiligidan tantanali ravishda namoyon qiladi.





Restavratsiyaga o‘ta muhtoj bo‘lgan Mirzachorbog‘ saroy xarobalari

Buxoroning so‘nggi amiri Sayid Olimxonning otasi Sayid Abdulahadxon 1894 yildan vafotiga qadar amirlikni Karmanadan turib boshqargani haqida ma'lumotlar bor. Shu davrda u Karmana atrofida Charmgarchorbog‘, Gulchorbog‘, Bog‘i olchin, Jarchorbog‘, Mirzachorbog' kabi bir nechta chorbog‘lar qudirgan.



Mirzachorbog' saroyining 1936 yildagi ko'rniishi

Shulardan bugungacha faqat bittasi saqlanib qolgan. Bu – Karmana tumanining Ko‘hnaqo‘rg‘on mahallasida, Zarafshon daryosiga yaqin hududda joylashgan Mirzachorbog‘. Mazkur obida Sayid Abdulahadxonning yozgi qarorgohi hisoblangan. 1900-1905 yillarda barpo etilgan, betakror me'moriy uslubga ega ushbu saroy nafaqat tarixiyligi, balki naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi san'atining o‘sha davrga xos namunalari aks etgani bilan qimmatlidir. Mirzachorbog‘ning qurilishida me'mor Abdurahim Turdimurod o‘g‘li G‘azg‘oniy bosh-qosh bo‘lgan; o‘sha davrning nomdor ganchkor ustasi Shirin Murodov ham ishtirok etgan. Saroyning qurilishida yana karmanalik Najjor To‘ra, usta Latif, usta Do‘s, usta Sulton Qori ishtirok etishgan. Bulardan tashqari, saroy qurilishida mingga yaqin ustalar jalb etilgan. Saroy asosan yog‘och va g‘ishtdan cho‘pkori uslubida tiklangan. U qurilish jihatidan ikkiga bo‘lingan. Birinchi qismi hajmi 6x20 m, balandligi 11 metrli bino bo‘lib, u ikki xonali dahliz va 15 bolorli mehmonxonadan iboratdir. Dahlizning tepasida boloxona bo‘lgan. Har ikki xonaning ichki qismi o‘ymakorlik va naqqoshlik ishlari bilan bezailgan. Mehmonxona to‘rida katta yoysimon mehrob va uning ikki tomonida ravoqlar qurilgan. Xonaning shimoliy va janubiy devorlari tepe qismlariga ham to‘rttadan ravoqlar mavjud. Binoning sakkizta derazasi Yevropa uslubida bo‘lib, ularning tepe qismi qasqonsimon shaklda ishlangan. Binoga ikki eshik orqali shimoliy tarafdan dahlizga kirilgan. Eshiklar o‘ymakorlik bilan bezatilgan. Mehmonxonaning g‘arbiy tomonida o‘n xonali yana bir bino bor. Arxitektura jihatdan u biroz sodda ko‘rinishga ega. Bino poydevori 25 qator 28x28x4 o‘lchamli pishiq g‘ishtdan 1 m qilib tiklangan. 26-qatoridagi g‘ishtlar zilzilaga bardoshliligi hisobga olinib, tik holatda terilgan. Sinch

va zavaravlar ko‘pburchakli shaklda qo‘yilgan, xovalari ko‘zdan yashirilgan. Bino xonalarining ichki qismi sharqona uslubda bezatilgan. Hovli yuzasidagi supa chetida 9–12 metrli quduq bo‘lgan, u keyinchalik ko‘mib yuborilgan. Yuqorida sanab o‘tilgan obidalarning ko‘pi Avliyoql devonbegi va bolsheviklar o‘rtasida bo‘lgan janglar oqibatida bolsheviklar tomonidan buzib yuborilgan. 1918-yil bolsheviklar tomonidan Buxoroni bosib olish harakatlari oqibatida Karmanada ko‘plab mahalliy aholi va mang‘itlar sulolasini vakillari qirilib ketdi. Saroy 1942–43 yillarda polyak askarlari uchun kazarma qilib berilgan. So‘ngra qishloq xo‘jaligi uchun foydalanishgan, jumladan, pillachilik idorasi bo‘lgan.

Afsuski, bugun u xarobazorga aylangan. Karmanada bunday saroy borligini chet ellik turistlar tugul ko‘plab karmanaliklarning o‘zлari bilmaydi. Bilganlar esa borib, tilla izlab ko‘rish maqsadida o‘zi qarovsiz bo‘lgan qarorgohning devor va ganchkor naqshlarini buzib tashlashmoqda. Bundan 3-4 yil oldin mavjud bo‘lgan saroyning old kirish qismi hozirda butunlay qulab tushgan. Agar ahvol shu tariqa davom etsa, yana 5–10 yildan so‘ng saroy butunlay qulashi aniq. Mirzachorbog‘ saroyi ko‘rib bir narsa xayolimga keldi mazkur saroy Shirbudin saroyi, Chamr-gar chorborg‘ saroyiga o‘xshab beparvoligimiz sabab yo‘qolib ketish arafasida agarda mazkur saroy restavratsiya qilinsa ichki va tashqi turistlarni qiziqtirishi mumkin va sayyoohlар oqimini o‘ziga jalb etsa neajab.

Foydalaniлgan adabiyotlar:

1. Hotamov, Bekniyozov 2007, s. 25.
2. Hotamov, Sh.Xalilov. Yillar sadosi. T. Adolat 1995
3. Solekhovich I. S., Halimovich B. H. PALACE ARCHITECTURE IN MEDIEVAL BUKHARIAN ARCHITECTURE //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 802-805.
4. Tojiev I., Vakhitov M. Research of structure of mortars for architectural monuments of Bukhara //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – T. 2467. – №. 1. – C. 020021.
5. Vakhitov M., Tojiev I. Research of strength of modified mortars for restoration of Bukhara architectural monuments //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – T. 2467. – №. 1. – C. 020045.
6. Тожиев И. И. Химические и минералогические составы исторических строительных растворов. Universum: технические науки: научный журнал. № 2 (95). Часть 6. г //Москва. – 2022. – С. 5-8.
7. Вахитов М. М., Тожиев И. И. Строительные растворы памятников архитектуры Бухары. – 2020.
8. Тожиев И. И. ИЗУЧЕНИЕ СТРУКТУРЫ АРХИТЕКТУРНЫХ РАСТВОРОВ //Universum: технические науки. – 2022. – №. 2-2 (95). – С. 52-54.

9. Юнусов Г. Г., Тожиев И. И. Тарихий обидалар реставрацияси учун мўлжалланган қоришмаларнинг оптимал таркибларини топишнинг математик модели //Журнал Физико-математические науки. – 2021. – Т. 2. – №. 1.
10. Zaitov A. A., Tojiev I. I. On a metric on the space of idempotent probability measures //arXiv preprint arXiv:1006.3902. – 2010.
11. Solekhovich, I. S., & Halimovich, B. N. . (2023). ARCHITECTURE AND HISTORY OF 12 GATES OF BUKHARA АРХИТЕКТУРА И ИСТОРИЯ . *Scientific Impulse*, 1(7), 818–825. Retrieved from
- 12.Хожиева Р. Б., Имамов С. С. ХРОМАТОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МЕТИЛ И ЭТИЛМЕРКАПТАНОВ В НЕФТЯНЫХ ПРОДУКТАХ //Инновационное развитие. – 2017. – №. 3. – С. 7-8.
- 13.Нуруллаева З. В., Имамов С. С. КАТАЛИЗАТОРЫ ПРОЦЕССА ГОРЕНИЯ ТОПЛИВНО-ВОЗДУШНОЙ СМЕСИ //Инновационное развитие. – 2017. – №. 3. – С. 6-7.
- 14.Vakhitov M., Tojiev I. Research of strength of modified mortars for restoration of Bukhara architectural monuments //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2467. – №. 1. – С. 020045.
- 15.Tojiev I., Hamidova M. Mathematical model for determining the optimal composition of mortars for restoration of historical monuments //Journal of Physics: Conference Series. – IOP Publishing, 2022. – Т. 2373. – №. 4. – С. 042008.
- 16.Тожиев И. И. ИЗУЧЕНИЕ СТРУКТУРЫ АРХИТЕКТУРНЫХ РАСТВОРОВ //Universum: технические науки. – 2022. – №. 2-2 (95). – С. 52-54.
- 17.Vaxitov M. M., Tulaganov A. A., Tojiev I. I. ADHESION STRENGTH OF MODIFIED PLASTER SOLUTIONS FOR RESTORATION OF RCHITECTURAL MONUMENTS OF BUKHARA //Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers. – 2020. – Т. 16. – №. 4. – С. 29-32.
18. Solexovich I. S. XUDOYORXON SAROYI QURILISHINING TARIXI VA ARXITEKTURASI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 14-19.
- 19.Solexovich I. S., Istamovich X. S. BUXOROI SHARIFNING 12 DARVOZASI QURILISHI TARIXI VA ARXITEKTURASI //PEDAGOG. – 2023. – Т. 6. – №. 3. – С. 317-327.